



BETAKROR SAN'AT DARG'ASI LEONARDO DA VINCHI

Ilmiy raxbar: Rasulov Akmal Rashid o'g'li

Hakimova Hafiza Abdulaziz qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Tasviriy san'at fakulteti, Miatyura va kitob grafikasi kafedrası, "Dastgohli kitob grafikasi" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15582001>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 30th May 2025

KEYWORDS

tasviriy san'at, rassom, ijod, asar, rang, qalam, qog'oz, o'chirg'ich.

ABSTRACT

maqolada Uyg'onish davrining daho va serqirra ijodkor Leonardo da Vinchining hayoti va ijodi, uyg'onish davriga qo'shgan hissasi va yaratgan asarlari hamda ularning taxlili haqida so'z boradi.

Uyg'onish davrining betakror san'at darg'alaridan biri, Leonardo da Vinchi 1452-1519 yillarda yashab ijod etdi. U Italiyaning Vinchi shahrida tug'ilgan. U rassomchilik bilan bir qatorda ko'plab boshqa yo'nalishlarda ham ijodiy ish olib borgan. Xususan, sayyoralar harakati, okean suvlari, qushlarning parvozi, tovushlarning quyosh yorug'ligi ta'sirida tarqalishi, yerdagi hayot tarixi va odamzod haqidagi ilmiy tadqiqot ishlari shular jumlasidandir. U tegirmon, tunellar, uchish apparatlari borasida ham anchagina kashfiyotlarga asos solgan.

San'at sohasida Leonardo da Vinchi haykallar ishlardi, me'morlik ham qilardi, musiqa asboblari chalardi, she'rlar yozardi, rasm chizardi. Hammasidan ko'ra u rasm ishlashga juda qiziqardi. Dastlab u Florensiyaga kelib, o'z davrining yetuk rassomi va haykaltaroshi bo'lgan Andrea Verokko qo'lida o'qiydi.

Leonardoning barcha badiiy-ijodiy faoliyati bevosita ilmiy izlanishlari bilan chambarchas bog'liq edi. U o'zining "Rangtasvir haqida traktat" nomli kitobida realistik san'atning butun bir dasturini bayon etgan. Bu dastur keyingi davr rassomlari tomonidan e'tirof etilib, yanada rivojlantirildi.

Leonardoning aksariyat asarlari diniy mavzularda bo'lsa-da, biroq ularning mazmunida yangicha ruh barq urib turar edi. Xususan, rassomning jo'shqinlik bilan to'lib-toshgan asarlarida kishilarning yerdagi hayotiy lavhalarini, ularning murakkab ma'naviy dunyosi va kechinmalari o'z ifodasini topgan. Leonardoning ko'pgina asarlarida ona obrazi aks etgan bo'lib, ular orqali rassom ayollarni ulug'laydi.

Qolaversa, rassom rangtasvirni me'morchilik bilan bog'langan holda aks ettirib, kompozitsiya mazmunini yangichasiga hal qiladi. Bu esa tomoshabinda unutilmas taassurot qoldiradi.

Rassomni mashhur qilgan asarlaridan yana biri "Mona Liza. Jokonda" nomli portretidir.

Asar 1503-1505 yillar davomida yaratilgan bo'lib, hozirda u Parijdagi Luvr muzeyida saqlanadi. Bu suvratda savdogar Jakondaning rafiqasi tasvirlangan. Mazkur portret yaratilganligiga 500 yildan oshgan bo'lsa-da, unga bo'lgan qiziqish hamon so'ngani yo'q, aksincha, XX asrga kelib, asar yanada kata shov-shuvlar keltirib chiqardi. Natijada millionlab

tomoshabinlar Amerika, Yaponiya, Rossiyada tashkil etilgan ko'chma ko'rgazmalarda asarni bir soniyagina ko'rish uchun kecha-kunduz navbat kutib turishlariga to'g'ri keldi. Ayrim sohta shuhratga intiluvchi odamlar asarga qarata to'pponchalardan o'q otishga harakat ham qilgan edilar. Shuning uchun asarning ustki qismining o'q o'tmaydigan zirhli oyna bilan to'sishga to'g'ri keldi. Birgina "Mona Liza" asari haqida yuz jilddan ortiqroq asarlar yartilganligi ham uning nechog'lik mashhurligidan dalolat beradi.

Xo'sh, XX asr kishilarini ushbu asardagi nima hayratga solardi? Nazarimda, yosh ayol yuzidagi his-tuyg'ularning o'zgaruvchanligidir. Zero, unda ba'zan sovuq kinoya, goh noz-karashma, goh ma'yuslik, goh jiddiy nigohni, gohida ishonarli darajadagi aniqlikni, goh qandaydir yashirin ma'noni ko'rish mumkin. Bunday bir-biriga zid ruhiy holatlar har qanday tomoshabinni o'ylashga majbur etadi.

"Mona Liza" yoki "Jokonda" suvratini kuzatganda, quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Surat tasviriy san'atning qaysi janriga mansub?
- Asardagi ayol necha yoshlarda bo'lishi mumkin?
- Suratdagi manzara qaysi faslga xos?
- Ayolning ruhiy holati qanday?
- Asar kompozitsiyasining e'tiborli jihatlari haqida fikr yuriting.
- Suratda rang, yorug' va soya, perspektiva qoidalariga qanchalik rioya qilingan?
- Rassom ayol timsolini tasvirlash orqali tomoshabinga nima demoqchi?

Asar yana shu jihati bilan mutaxassis va tomoshabinlarga qiziqish uyg'otadiki, rassom o'zining butun umri davomida ishlagan barcha asarlarini sotgan. Lekin "Mona Liza" asarini doimo o'zi bilan olib yurgan va har qancha kata miqdordagi pullarni taklif etishsa-da, uni sotmagan. Leonardo da Vinchi o'z hoyitida ko'plab yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratdi. Ulardan "Madonna Benua", "Madonna Litta", "Qoyadagi Madonna", "Gul ushlagan Madonna", "Oqsichqon ushlagan ayol", "Ayol portreti" va boshqalarni alohida tilga olish mumkin. Daho Leonardo da Vinchining asarlari 5 asrki kishilarni o'ylashga, go'zallikni tushunishga va qadrlashga o'rgatib kelmoqda. Uning betakror ijodi barcha davr rassomlari uchun namuna va tajriba maktabi bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov R. "Tasviriy san'at asoslari"
2. Rustamova D. "Italiya ilk va yuqori uyg'onish davri"
3. Alptov M. V. Xudojestvenniye problem italyanskogo Vozrojdeniya. M. 1975.
4. Rotenberg Y.I. Isskustvo Italii epoxi Vozrojdeniya. M.1974.